

KATTA ASHULA IJROSIDA RUHIYAT VA JISMONIY HARAKAT UYG'UNLIGI

Arzimurodova Nigora

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası
o'qituvchisi**

Annotatsiya: Haqiqiy san'at, eng avvalo, insonning insoniylik qiyofasini shakllantiradi. Insonni tuban fikrlardan yiroqlashtirib, yuksaklikka ko'taradi, hamdard bo'lishga da'vat etadi. San'at inson ruhiyatini poklaydi. Uning tarbiyaviy ahamiyatini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Madaniyat va san'at insonni hayvondan ajratib turuvchi chegara. San'at - ma'naviy ijodiyotdir. Ushbu maqolada katta ashula ijrosida ruhiyat va jismoniy harakat uyg'unligi xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: katta ashula; badiha uslubi; ruhiyat; jismoniy harakat.

Arzimurodova Nigora

**Teacher of "National Singing" department of the
Uzbek State Institute of Arts and Culture**

Annotation: True art, first of all, shapes the human image of a person. It lifts one away from low thoughts, elevates one, and encourages empathy. Art purifies the human psyche. Its educational value is unmatched. Culture and art are the boundaries that separate man from animals. Art is a spiritual creation. This article discusses the combination of mental and physical activity in the performance of a great song.

Keywords: big song; badiha services; psyche; physical activity.

Аннотация: Настоящее искусство, прежде всего, формирует человеческий образ человека. Он уводит от низменных мыслей, возвышает и поощряет сопереживание. Искусство очищает психику человека. Его

образовательная ценность не имеет себе равных. Культура и искусство – это границы, отделяющие человека от животных. Искусство – это духовное творение. В данной статье рассматривается сочетание умственной и физической нагрузки при исполнении великой песни.

Ключевые слова: большая песня; услуги бадиха; психика; физическая активность.

Har bir xalqning o‘z nomoddiy madaniy merosi mavjud bo‘lib, ularni asrab avaylash, davomiyligi va yashovchanligini ta‘minlash o‘sha xalqning zimmasiga ulkan mas‘uliyatni yuklaydi. O‘zbek xalqining ham bir qator ana shunday meroslari mavjud bo‘lib, ularning ko‘p qismi YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosining representativ ro‘yxatiga kiritilgan. Shulardan biri juda qadimiy va betakror san‘at turi bo‘lgan Katta ashuladir. Ma‘lumki, katta ashula — Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan o‘zbek an‘anaviy ashula yo‘li hisoblanadi. Odatda, 2—5 hamnafas ashulachi tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz qo‘llariga patnis yoki likobcha ushlagan holda aytiladi. Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo‘shiq-lari, marsiya, navha, ayolg‘u qo‘shiq-lari hamda aruz vaznidagi g‘azallarning qadimiy o‘qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Katta ashula, odatda, katta yig‘in, sayil va to‘y-tomoshalarda aytilgan. Uning o‘tmishdagi namunalarida lirik va nasihatomez g‘azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvuf yo‘nalishidagi she‘rlar ham kuylangan. Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g‘azallari Katta ashula janridan alohida o‘rin olgan. Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar bir-biriga mukammal va uzviy bog‘lanishini ta‘minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qo‘llanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi an‘anaviy "ustozshogird" maktabini o‘tgan, she‘riyat qonunlari va ijrochilik an‘analariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega bo‘lishi lozim. Hofizlar, odatda,

she'r bandidagi boshlang'ich misralarning har birini galma-gal, so'nggi misralarni jo'r bo'lib ijro etadilar. XX asr ning II yarmida katta ashulaning yangi ashulacholg'u yo'llari, yakkaxon hofizga mo'ljallangan turlari yuzaga keldi. Mazkur namunalarda cholg'u ansambli hamnafas hofiz vazifasini bajargan, ijroda erkin uslub saqlanib qolgan.

Ma'lum bir musiqiy asar uch xil ko'rinishda mavjud bo'ladi. Birinchisi nota va g'azal matni, ya'ni yozuv asosida bo'lsa, ikkinchisi, ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda va uchinchisi, tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi. Musiqiy asar, maqom mumtoz ashulani ijro qilish faqat o'sha yaratuvchi, bastakor yoki kompozitor notaga tushirgan fikru-xayollarining talqini bo'libgina qolmasdan, ijrochi uchun o'ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir. Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda xonandaning diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emotsiyasi (his-tuyg'u va hayajon) va eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur. Bundan tashqari uning shaxsiy ovoz sifati, tembrining go'zal va boyligi, pardalarning tozaligi, musiqiy qobiliyati va iqtidori, quvnoqligi va jo'shqinligi, dunyoqarashi va erkin fikrlashi, xarakteri va mentaliteti aks etmog'i lozim. Ushbu shaxsiy sifatlarning barchasi inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyati, badiiy-ijrochilik ijodining tarkibiy qismi bo'lib, hali yaxshi tadqiq qilinmagan musiqiy ruhshunoslik sohasiga aloqadordir. Inson faoliyatining barcha turlarida bo'lgani kabi, Diqqat musiqa san'atida ijrochining hissiy, intellektual, harakatga keluvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim shartidir. Musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, jamoa shaklida ijro qilishda u juda muhimdir. Ya'ni ansambl bo'lib kuylashdan avval musiqa rahbari (doira, chang cho'pi)ning ko'tarilgan qo'llari, avtakt, yakkaxon va jo'rnavoz - jo'rovoz o'rtasidagi ishora va harakatlarning hammasi musiqada diqqat deb ataladi. Ayniqsa, an'anaviy

xonandalar jismoniy va ruhiy jihatlarining barcha tomonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ijro jarayonida ashulachining murakkab markaziy asab tizimi, butun sezgi a‘zolari, ko‘rish, eshitish, xotira, harakat mayllari, musiqiy-estetik tasavvurlari va aqliy faoliyatining bir-biriga bog‘langan, mujassam holda chiroyli kuylashda qatnashishini guvohi bo‘lamiz. Bulardan sezgi - inson organizmi tomonidan eshitish, ko‘rish, hid bilish, tana sezgisi, ta‘m bilish va h.k. a‘zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi. Bu murakkab jarayonda xonandaning aql-idroki va ruhiy faoliyati kuylashga qaratilgan bo‘lib, u o‘z ovozi va yonidagi hamnafaslari ijrosi yoki jo‘rnavor chalayotgan musiqiy tovushlarni eshitishi, nota matni yoki boshliq harakatini ko‘rishi, parda, tessitura, sakrash va avjlarni ovoz apparatida his qilishi, sezishi natijasida bosh miyaga axborot yetadi. Musiqani badiiy anglash va tushunib yetishda musiqiy tasavvur jarayoni asos sifatida xizmat qiladi. Tajribali tinglovchining tasavvurida faqat jaranglab turgan tovushlar yig‘indisi yoki ashulachi ovozigina eshilib qolmasdan undan keyin keladigan ohanglar, g‘azal so‘zlari, kuy harakati, lad o‘zgarishi, ma‘lum ma‘no beruvchi mavzu ham aks etadi. Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri His, tuyg‘u va hayajon (emotsiya)dir. Kishi o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo‘ladi. Buning natijasida shod-u-xurramlik, qayg‘u va g‘am, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, jahl va g‘azab, hayratlanish, xafa bo‘lish kabi boshqa ko‘plab mayl va tuyg‘ular (obyektiv dunyoga subyektiv munosabat kechinmalari) insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi. Xonandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya‘ni eng nozik va go‘zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his tuyg‘ular xonanda ijrochilik faoliyatida o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib ongli ravishda turli vosita va yo‘llardan foydalangan holda maqomlar va mumtoz asarlardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi. Katta ashula janri juda qadimiy san‘at turlaridan biri sanalib, mutaxassislar bugungi kunda uning kelib chiqishi bilan

bog‘liq ravishda baxs va munozaralar olib bormoqdalar. Bir nechta mutaxassislar “Katta ashula”ni diniy mazmundagi musiqalar bilan bog‘liq, deb hisoblasa, boshqa musiqashunoslar esa “she’rlarni baland ovozda aytish, yuqori pardada kuylash orqali katta ashulalar vujudga kelgan”, deydi. Hattoki, ushbu san’atni qadimda kambag‘alchilik davrlarda paydo bo‘lgan bo‘lib, uni musiqiy sozlarni sotib olishga qurbi yetmagan baland ovozli xonandalarning san’ati, deguvchi san’atshunoslar ham topiladi. Aslida “Katta ashula” ma’lum mezon va qonuniyatlarga asoslangan mustaqil va yetuk bir san’at turi bo‘lib, Toshkent–Farg‘ona musiqa maktabining alohida yo‘nalishi sanaladi. Uni yaxshi biladigan, mukammal egallagan ustozlardan o‘rganish, targ‘ib etish va shu yo‘lda yangi namunalarni ijod etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri. Umuman olganda, cholg‘u sozlarsiz ijro etiladigan janrlar mamlakatimizning boshqa vohalarida ham mavjud. Misol uchun Xorazm dostonlaridagi rechitativ, ya’ni, nutq bilan aytiluvchi qismi, Buxoro mavrigi va Buxorcha janrlarining boshlanish, doira usulisiz qismi, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaridagi mavjud aytim ya’ni eslash, yod olish kabi kuylash janrlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
2. Muhmudova H. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili. Toshkent, 2015.
3. Safarov Z. Katta ashula ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslari. Toshkent. 2022. 689-bet.
4. Safarov O. Nomoddiy- madaniy meros: Katta ashula. Toshkent. 2022.